

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**MUHANDIS-TEXNIKA FAKULTETI**

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH KAFEDRASI**

**Narziyev Shavkat Umbarovichning**

**5430100 – Qishloq xo'jligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'naliishi  
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**"Ishchi organi takomillashgan kul'tivator yordamida poliz ekinlarining  
keng qator orasi(pushta)ga ishlov berishni mexanizatsiyalashtirish"  
mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**G'.X.Ergashov**

**QARSHI – 2018 yil**

## **Mundarija**

Kirish.....
I bob. Umumiy qism.....
1.1. Tuproqning unumdon qatlamini saqlash masalalari .....
1.2. Yerga ishlov berishda kultivatorlardan foydalanishning ahamiyati
1.3. Mavzuni asoslash.....
II bob. Yaratuvchanlik qismi.....
2.1. Tuproqni ag‘darmasdan ishlov beruvchi mashinalarning xarakteristikasi, konstruktiv avzalliklari va kamchiliklari .....
2.2. Yassi keskich konstruksiyasini takomillashtirish metodi
2.3. Yumshatishni protoklarini gorizontal bo‘yicha o‘rnatish burchagini aniqlash.....
2.4. Takomillashgan yassi keskichni ramaga joylashtirish sxemasi va kultivatorning umumiy tuzilishi .....
2.5. Yassi keskich ustunining ko‘ndalang kesimini aniqlash.
III bob. Operatsion texnologik xaritani hisoblash qismi.....
3.1. Takomillashgan ko‘ltivator yordamida poliz ekinlariga ishlov berish jarayonining operatsion texnologik xaritasi.....
IV. Mehnat muhofazasi .....
3.1. Mehnat muhofazasi.....
IV bob. Atrof – muhit muhofazasi.....
4.1. Atrof – muhit muhofazasi.....
V bob. Iqtisodiy qism.....
Xulosa.....
Foydalilanigan adabiyotlar ruyxati.....

## Kirish

Zamonaviy sanoat va qishloq xo‘jalik oldidagi asosiy masalalardan biri dehqonchilik va chorvachilik maxsulotlarini ko‘paytirish sifatini yaxshilash, tannarxini kamaytirish va ushbu sohalar uchun yangi texnologiya va texnik vositalarini yaratishdir.

Energiya kam talab etadigan, ish unumdorligi yuqori bo‘lgan mashinalarni ko‘plab ishlab chiqarish, xo‘jaliklarni bu texnika bilan ta’minlash eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, bu dehqonlarga qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishni va yig‘ib olishni yuqori darajada mexanizatsiyalashtirishda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarilishini industrial asosga va ilg‘or texnologiyaga o‘tkazishni jadallashtirishda yordam beradi.

Demak mamlakatimizning iqtisodiy rivojlantirishda va qishloq xo‘jalogining o‘rni beqiyos. Shu sababli hozirgi kunda qishloq xo‘jalogida mahsulot ishlab chiqarish hajmini nafaqat oshirish, balki sifatini yaxshilash, fermer xo‘jaligi yerlarida va aholi tomorqalarida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, buning uchun birinchi navbatda haqiqiy yer egalarini topish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish, saqlash, qayta ishlash, eksport qilish kabi kompleks masalalarni hal etish kerak. Bu borada Respublikamiz aholisini yetarli darajada, sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash ehtiyojlari tobora ortib borayotgan bir paytda, qishloq xo‘jalogida agrar islohotlarni yanada chuqurlashtirish, respublikamiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, xalq farovonligini yaxshilash, ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tadbirlarning samarali tizimini yaratishni hayot taqozo etmoqda.

Buning uchun qishloq xo‘jalogida fan-texnika yutuqlarini, ilg‘orlar tajribasini joriy etish, universal va kichik o‘lchamli, yuqori ish unumdorligi, katta quvvatga ega bo‘lgan texnikalardan unumli foydalanish va ularning konstruksiyalarini takomillashtirish natijasida yuqori ish unumdorligiga va iqtisodiy samaradorlikka erishish, shu bilan birga fermerlamizda oldindan ishlatib kelayotgan mavjud texnikalardan unumli foydalanish muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Chunki

qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan maxsulotlarning tannarxi ularni mexanizatsiyalashtilganligi darajasiga bog‘liq.

Respublikamizning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir davrda qishloq xo‘jalik ekinlarning hosildorligini oshirish, shu jumladan polizchilikni rivojlantirish va poliz mahsulotlari bilan aholini to‘liq ta’minlash va xorijiy mamlakatlarga sotish ayni paytdagi eng dolzarb masalardan biridir.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda yerga ishlov berish agrotexnika tadbirdari sistemasida eng muhim o‘rinni egallaydi. Yerga to‘g‘ri ishlov berilsa, nam tuproqqa yaxshi singiydi va o‘simglik ildizining kuchli rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Tuproq noyob tabiiy resursdir. Shuning uchun tuproqning o‘z-o‘zini tiklash qobiliyatini saqlash birinchi darajali vazifadir.

Poliz ekinlarining keng qator oralariga ishlov berishda xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan haydov agregatlaridan, ularning korpusidagi ag‘dargichlari olib qo‘yilgan holda foydalanimilib kelinmoqda. Ushbu haydov agregatlarining ish unumidorligi juda past. Bu esa yonilg‘i va mehnat sarfini oshishiga va poliz ekinlarini yetishtirishda mashinalar sonining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Yuqorida bayon etilgan dolzarb masalalarni tezroq hal etishda aktiv ishtirok etish Respublikamizning har bir fuqarosi, shu jumladan institut talabalarining ham burchidir. Shuning uchun men, talabalik davrida olgan bilimlardan foydalanimib, qishloq xo‘jalik mashinalarning ish unumidorligini va ekinlarining hosildorligini oshirish maqsadida ”Ishchi organi takomillashgan kul’tivator yordamida poliz ekinlarining keng qator orasi(pushta)ga ishlov berishni mexanizatsiyalashtirish” mavzusi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishini tanladim.

## I. Umumiy qism

### 1.1.Tuproqning unumdor qatlamini saqlash masalalari

Tuproq noyob tabiiy resursdir. Odamlar yerdan foydalangan davrdan boshlab tuproq ishlab chiqarishning muhim vositasi, mehnat hamda tabiiy ne'matlar manbaiga aylandi.

Tuproq o‘z unumdorligini yo‘qotsa ham, qayta tiklanadigan resurslardan hisoblanadi. Tuproqning o‘ziga xos xususiyatlari uni muhofaza qilish zarurligini talab qiladi.

Bugungi kunda dunyoda ekinlar ekiladigan maydon 1,5 milliard getkarga teng bo‘lib, u bugun quruqlikning 2 foizini tashkil qiladi. Demak, tuproq qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida katta ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, undagi foydalananish va uni muhofaza qilish, uning tabiatdagi va inson hayotidagi xilma-xil rolini hisobga olishni taqozo qiladi.

Endilikda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish 20-25 yil avvalgidek haydaladigan yerlar maydonini ko‘paytirishga emas, balki qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni intensivlashtirishga asoslangan.

O‘zbekistonning umumiy yer maydoni 44,8 million getktarni tashkil qiladi. Shundan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar 33,1 million gettar bo‘lib, sug‘oriladigan yerlar esa bor yo‘g‘i 3 million 746 ming getkarga tengdir. Kupgina qismi esa lalmikor yerlarga kiradi.

Insoniyat o‘zining butun tarixi davomida 2 milliard getkarga yaqin unumdor yerni yo‘qotgan.

Yer yuzida har yili suv va shamol eroziyasi, ko‘m bosish, shurlanish va boshqa sabablar bilan 6-7 million getkargacha yer ishdan chiqmoqda. Bularning xammasi insonlarni qattiq tashvishga solayapti. Tashvishning asosli ekanligi shundan ko‘rish mumkinki, tuproq maydonining kamayishi uning paydo bo‘lishiga nisbatan juda tez yuz beradi. Masalan, 18 santimetr qalinlikdagi tuproqni yaratish uchun 1400-1700 yil kerak. Chunki tuproq paydo bo‘lish jarayoni taxminan 100 yilga 0,5-2 santimetr to‘g‘ri keladi. Bu qalinlikdagi tuproq

qavatini eroziya 20-30 yilda yemirishi mumkin, ba'zan esa buning uchun bitta jala yoki chang bo'roni kifoya qiladi.

Tuproq yer qobig'inining hosildor va o'simlik dunyosiga xayot bag'ishlaydigan eng yuqori qatlamidir. Tuproqning yuqori xosildor qatlamlari o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan oziq moddalarning ulkan zahiralari saqlanadigan xazina hisoblanadi.

Yomg'ir va bahorgi yog'inlarning suv oqimlari, kuchli shamollar yuqori, eng hosildor haydalma qatlamni yemiradi va yuvib, uchirib ketadi.

Tuproq unumdorligini doimo progressiv ravishda oshirib borish qishloq xo'jaligining eng muhim vazifasidir. Bunga dehqonchilikning ilg'or sestemalarini: almashlab ekishni uzluksiz qo'llash va tuproqqa to'g'ri ishlov berish kabilarni joriy qilish bilan erishiladi.

Boshqa aytganda, tuproq parvarishni talab etadi va undan foydalanish ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Eroziya jarayonlarining oldini olish va unga qarshi kurash uchun bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ular qishloq xo'jaligini ratsional yuritishning tarkibiy qismlaridir. tuproq eroziyasiga qarshi kurash usullari xilma-xil bo'lib, ular joyning tabiiy geografik sharoitiga bog'liq.

Shamol eroziyasi kuchli bo'ladigan paytlarda tuproqqa ishlov berayotganda uni changishdan saqlash zamonaviy agrotexnikaning muhim tadbirlaridan biridir. Ekish oldidan ishlov berishda va dam berilgan yerkarda ishlov berishda diskli lushilnik va pluglarni ag'dargichsiz qurollar bilan almashtirish zarur.

Tuproqqa ag'darmasdan ishlov berish yassi keskichli ishchi a'zolar bilan jihozlangan kultivatorlar bilan amalga oshiriladi.

## **1.2. Yerga ishlov berishda kultivatorlardan foydalanishning ahamiyati**

Tuproqni ag'darmasdan yassi keskichlar bilan ishlov berish uchun ko'pgina mashinalar ishlab chiqilgan.

Shtangali KSH-3,6A kultivatori begona o'simliklarni yo'qotish va tuproqni yumshatishga, shuningdek ekish oldidan kultivatsiya qilishga mo'ljallangan. Tuproqqa ishlov berayotganda qurol ang'izni dala yuzasida beshikast qoldiradi.

Shuning uchun u shamol eroziyasi bo‘ladigan va namlik yetarli bo‘lmagan rayonlarda ishlatiladi.

Yotiq kesuvchi, chuqur yumshatuvchi o‘rnatma KPG-2-150 kultivatori bashoqli don ekinlari ang‘izini qoldirgan holda tuproqni chuqur yumshatish va kultivatsiya qilishga, shuningdek dam berilgan toza shudgorlarni kultivatsiya qilishga mo‘ljallangan. U K-701, T-4A, DT-75M va VT-150 traktorlariga qo‘sib ishlatiladi.

Gidravlik boshqariladigan keng qamrovli yotiq kesuvchi KPSH-9 kultivatori dam berilgan shudgorga asosiy ishlov berish va tuproqqa ekin ekish oldidan 18 sm chuqurlikda ishlov berishga mo‘ljallangan. Bunda u tuproqni shamol eroziyasidan saqlash uchun don ekinlari qoldiqlarini tuproq betida qoldiradi. Bu mashina K-701, T-150 va T-150K traktorlariga qo‘sib ishlatiladi.

Bulardan tashqari tuproqlarga ishlov berish uchun KPG-250, PG-3-100 va KPG-2,2 kultivatorlarni ham ishlatiladi. Ular yerga 25-30 sm chuqurlikkacha ishlov beradi. Kultivatorlar qamrash kengligi 250 yoki 110 sm bo‘lgan yassi kesuvchi ishchi a’zolar bilan jihozlangan.

Yuqorida qayd etilgan yassi kesuvchi ishchi a’zolar bilan jihozlangan mashinalar Rossiya davlatida ishlab chiqariladi va hozirgi vaqtida ularni sotib olish juda qimmatga tushayapti. Shuning uchun kam energiya talab etadigan, yerni ag‘darmasdan ishlov berishga mo‘ljallangan texnologiyani polizchilik uchun joriy etishda qiyinchiliklar tug‘ilmoqda.

Ayniqsa, poliz ekinlari yetishtirishda ishlatiladigan yassi kesuvchi ishchi a’zolar bilan jihozlangan kultivatorlar ishlab chiqarishda mavjud emas. Shuning uchun, mavjud kultivatorlar ramasidan foydalaniib, uni yassi kesuvchi ishchi a’zolar bilan jihozlab, kultivatorlarning universalligini oshirgan holda poliz ekinlarining keng qator (270-290 sm) orasi(pushta)siga ishlov berishda foydalansak yuqorida keltirilgan mashinalardan ham mukammal bo‘lgan arzon, tayyorlanishi oson va xo‘jaliklarimiz tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan takomillashgan yassi keskichli kultivatorlarga ega bo‘lamiz.\

### **1.3. Mavzuni asoslash**

Hozirgi vaqtida Respublikamiz sanoatida polizchilik uchun birorta ham yassi keskichli tuproqni ag‘darmasdan ishlov beradigan mashina ishlab chiqarilmayapti. Boshqa davlatlardan sotib olish ancha qimmatga tushadi. Shu tufayli, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda yerni ag‘darmasdan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqarishga kam joriy etilayapti.

O‘zbekiston sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari qovun va tarvuzni quyidagi qo’sh qatorli lentasimon usullarda joylashtirishni tavsiya etadilar:

*tekis maydonlarda*

270+90 x 70 sm

2

*qiyali maydonlarda*

290+70 x 70 sm

2

Bunda ikki qatorli ekish amalga oshirilib, asosiy qator orasi 70-90 sm, pushta bo‘yicha keng qator orasi 270-290 sm va urug‘lar orasidagi masofa 70 sm bo‘ladi. Pushta bo‘yicha qator orasining eng kichik qiymatlarida qovun, katta qiymatlarida esa tarvuz va oshqovoq ekinlarini ekish maqsadga muvofikdir [6].

Poliz ekinlarini sug‘orish asosiy qator orasidagi ariqlar orqali amalga oshirilib, bunda ekinlar 70 yoki 90 sm qilib ekilganligi tufayli yaxshi nam bilan ta’milanadi. Asosiy qator oralari(70-90 sm)ga xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan chopiq kultivatorlari yordamida ishlov berish amalga oshiriladi.

Poliz ekinlarining keng qator (270-290 sm) orasi(pushta)ga esa xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan haydov agregatlaridan foydalanib ishlov berilmoqda. Ushbu haydov agregatlarining qamrash kengligi 1,0-1,4 metr bo‘lganligi tufayli poliz ekinlarining pushtasiga ishlov berish aggregatning 2-3 marta o‘tishi evaziga amalga oshiriladi. Bu esa yonilg‘i va mehnat sarfini oshishiga va poliz ekinlarini yetishtirishda mashinalar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Yer yassi keskichlar yordamida ishlanganda tuproq ortiqcha zichlashmaydi, uning strukturali donadorlik holati yaxshi saqlanadi va yana eng muhimmi kam energiya sarflanadi.

Shuning uchun respublikamizning tuproq-iqlim sharoitiga mos tushadigan yangi konstruksiyadagi yassi keskichlar bilan jihozlangan kul'tivator yordamida poliz ekinlarining keng qator orasi(pushta)ga ishlov berishni amalga oshirish bizning maqsadimizdir.

## **II. Yaratuvchanlik qismi.**

### **2.1. Tuproqni ag‘darmasdan ishlov beruvchi mashinalarning xarakteristikasi, konstruktiv afzalliklari va kamchiliklari**

Tuproqni ag‘darmasdan ishlov berishda quyidagi mashinalar ishlatalishi mumkin.

Yotiq kesuvchi, chuqur yumshatuvchi KPG-2-150, KPG-250A, PG-3-100, KPSH-9 va KPG-2,2 kultivatorlari tuproqni ag‘darmasdan ishlov berish va dam berilgan toza shudgorlarni kultivatsiya qilishga mo‘ljallangan.

KPG-2-150 kultivatorida 2 ta 150 sm qamrash kengligiga ega bo‘lgan yassi keskich o‘rnatilgan bo‘lib, yerga 16 sm chuqurlikkacha ishlov berishga mo‘ljallangan.

Gidravlik boshqariladigan, yarim o‘rnatma KPSH-9 kultivatori K-701, T-150 va T-150K traktorlariga qo‘sib ishlataladi. Uni 8,2 m va 6,4 m qamrash kengliklarida ishlatalish mumkin. Yassi keskichli ishchi a’zolarning qamrash kengligi 100 sm bo‘lib, tuproqqa 16 sm chuqurlikkacha ishlov beradi.

KPG-250A, PG-3-100 va KPG-2,2 o‘rnatma kultivatorlari 250 yoki 110 sm qamrash kengligiga ega bo‘lgan yassi keskichli ishchi a’zolarga ega bo‘lib, tuproqqa 25-30 sm chuqurlikkacha ishlov berishga mo‘ljallangan.

Yuqorida keltirilgan kultivatorlarning ishchi a’zolari bir-biriga o‘xshash bo‘lib, ustun va uning pastki qismiga mahkamlanadigan iskana va ikki dona lemexdan tuzilgan.


Bu kultivatorlarda ishlataladigan ishchi a’zolarning asosiy kamchiligi shundan iboratki, yassi keskich qamrash kengligi (100,110,150 yoki 250 sm) ning kattaligi, ularda tuproqni maydalash mexanizmining yo‘qligi va yer ostidagi qoldiq ildizlarni yerning betiga chiqara olmasligidir.

Respublikamiz sharoitida ushbu kultivatorlar ishlatsa ko‘p hollarda dalada kesaklar hosil bo‘lib, ko‘shimcha ishlar qilishga to‘g‘ri keladi.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan yassi kesichlarning konstruksiyasini va ularni ramaga o‘rnatish sxemasini zaruriy ravishda takomillashtirilishi shart.

## **2.2. Yassi keskich konstruksiyasini takomillashtirish metodi**

Tuproqni ag‘darmasdan ishlov berish uchun biz qo‘yidagi ko‘rinishdagi takomillashgan yassi keskich (2.1-rasm) konstruksiyasini taklif etamiz.



2.1-rasm. Yassi keskich: 1-ustun. 2-lemex. 3-pruktokli yumshatgich. 4-iskana.

Yassi keskichda ustun bor. Ustun pastki qismining yon tomonlariga chap va o‘ng lemexlar payvand qilinadi, old tomoniga kosinkalar yordamida iskana mahkamlanadi. Chap va o‘ng lemexlarga prutokli yumshatgichlar o‘rnataladi. Lemexlar va iskanarning yeyilishga chidamliligini oshirish uchun ularning sirtiga qattiq qotishma suyuqlashtirib qoplanadi.


Yassi keskich asosiy parametrlarini tegishli adabiyotlardan foydalangan holda qo‘yidagicha qabul qilamiz:

- lemexni agregatning xarakat yo‘nalishiga nisbatan joylashish burchagi-40;
- lemex va iskana ishlov berayotgan yuzaga nisbatan joylashish burchagi- $25^0$ ;
- lemexni charxlashish burchagi- $15^0$ ;
- ish kengligi-650mm;
- yumshatish protogining uzunligi-200 mm

Yassi keskichning tuproqda ishlash jarayoni qo‘yidagicha bo‘lib, lemex tig‘i va iskana bilan kesilgan tuproq qatlami lemexning polkasida harakatlanib, yumshatish pruktoklariga tushadi. Natijada qatlamning dinamik kuchlanishi va yerning massasi ta’sirida tuproqning qo‘srimcha maydalanishi sodir bo‘ladi. Yassi

keskich qamrash kengligi(650 mm)ning kichik bo‘lganligi tufayli, u yerga yaxshi kiradi.


Poliz ekinlari yetishtirishda keng qator orasi(pushta)siga ishlov berishda yassi kesuvchi ishchi a’zolarni MUB-5,4 kultivatori ramasiga qo‘yidagi tartibda joylashtiramiz (2.2-rasm).



2.2-rasm. MUB-5,4 kultivatori ramasiga takomillashgan yassi keskichlarni joylashtirish sxemasi.

Ishchi organi takomillashgan MUB-5,4 kultivatorining poliz ekinlari keng qator (270-290 sm) orasi(pushta)siga ishlov berish jarayoni qo‘yidagi tartibda amalga oshadi (2.3-rasm).

MUB-5,4 kultivatori ramasiga takomillashgan yassi keskichlarni o‘rnatib, uni poliz ekinlarining keng qator (270-290 sm) orasi(pushta)siga ishlov berishda foydalansak, kultivatorning universalligi oshadi va tayyorlanishi oson hamda xo‘jaliklarimiz tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan takomillashgan yassi keskichli kultivatorlarga ega bo‘lamiz.\



2.3-rasm. Takomillashgan MUB-5,4 kultivatorining poliz ekinlari keng qator orasi(pushta)siga ishlov berish jarayoni.

### **2.3. Yumshatish prutoklarini gorizont bo'yicha o'rnatish burchagini aniqlash**

Yassi keskichning tuproqda ishlash jarayonida, uning elementlariga o'simlik ildizlari o'zaro ta'sir etadi. Shuning uchun ishning sifati va texnologik jarayon bajarilishining ishonchliligi ko'p jihatdan ularning ta'sir xarakteri va vaqtiga bog'liqdir.

O'simlik ildizlarining yumshatish pruktoklariga o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz. Lemex tig'i bilan kesilgan tuproq qatlami uning polkasida xarakatlanib, prutokka tushadi va qatlamning dinamik kuchlanishi va uning massasi ta'sirida tuproqning qo'shimcha maydalanishi sodir bo'ladi. Tuproq prutok ustidan o'tib, uning tarkibidagi o'simlik ildizlari prutokka ilashib qoladi. Keyinchalik unda ildizning harakatlanishiga tuproqning qarshiligi tufayli, yumshatish pruktoklarida ularning ishqalanishi sodir bo'ladi. Bunda eng ko'p e'tiborni ildizlarning prutoklarda xarakatlanib yon tomonlarga tusha ololmasligi va yuqori nuqtagacha xarakatlanib, keyin undan tushib ketishiga qaratish kerak.

Tuproq va ildizlarning fizik-mexanik xossalari va yumshatish protoklarining parametrlariga bog‘liq bo‘lgan ildizlarning protok bo‘yicha sirpanish vaqtini minimal bo‘lishi kerak, aks holda protoklarga ildizlarning o‘ralishi sodir bo‘ladi. Bu o‘z navbatida tuproqlarning yig‘ilishiga va yassi pichoq tortish qarshiligining keskin oshishiga sabab bo‘ladi.

Ildizlarning protok bilan o‘zaro ta’sirida (2.4-rasm) murakkab xarakatni amalga oshiradi, ya’ni bir vaqtida u bilan  $V_n$  tezlikda ko‘chib,  $V_0$  tezlikda u bo‘yicha sirpanadi.

Ildizning protok bo‘yicha nisbiy ko‘chish tezligi qo‘yidagiga tengdir.

$$\frac{\cos(\alpha + \beta)}{\cos(\alpha - \beta)}$$

$$= \quad ; \quad (1)$$

Bu yerda  $\alpha$ -ildizning po‘lat bo‘yicha ishqalanishi burchagi.

$\beta$ -yumshatish pruktoklarini o‘rnatish burchagi.

Ildizning protok bo‘yicha sirpanish vaqtini qo‘yidagicha aniqlanadi.

Bu yerda  $\alpha$ -yumshatish pruktoklarining uzunligi.

Yerga ishlov berish vaqtida  $\alpha$  yumshatish pruktoklarining uzunligi shunday bo‘lishi kerakki, uning yuqoriga uchi yerning betiga chiqib yurmasligi kerak.

Shuning uchun yumshatish protoklarining uzunligi qo‘yidagicha aniqlanadi.

$$= - \cdot \quad ; \quad (3)$$


Bu yerda

(1) va yumshatish protoklarining (3) qiymatlarini (2)-chi

Nisbiy  $\alpha$  tezlik  $v_n$   
ko‘paytmaga qo‘yib sirpanish vaqtini aniqlaymiz.

$$\frac{(-\sin(\alpha + \beta))}{(-\sin(\alpha - \beta))}$$

$$= \cdot \cos(\alpha + \beta) \quad ; \quad (4)$$



2.4-rasm. Yumshatish protoklarida ildizlarni sirpanish vaqtini aniqlashga oid sxema.

(4) ko‘paytmaning ikki qismini ham bo‘yicha differensiallab, bu fuksiyaning minimal qiymatini topamiz.

Bunda

$$\frac{d}{dx} \left( \frac{\sin \alpha}{\sin(\alpha - \beta)} \right) = n i$$

o‘zgarmas deb qabul qilamiz.

$$\frac{d}{dx} \left( \frac{\sin \alpha}{\sin(\alpha - \beta)} \right) = - \frac{\cos(\alpha - \beta)}{\sin^2(\alpha - \beta)} \cdot (-\cos \beta + \sin \alpha)$$

$$= - \frac{\cos(\alpha - \beta)}{\sin^2(\alpha - \beta)} \cdot (\cos \beta - \cos(\alpha - \beta))$$

Birinchi hosilani nolga tenglab, protok bo‘yicha ildizlarning minimal sirpanish vaqtini qo‘yidagi burchakda amalga oshishligini topamiz.

$$\frac{\cos(\alpha - \beta)}{\sin^2(\alpha - \beta)} = - \frac{90^\circ}{2};$$

Po'lat materiallarda tuproqning ildizlar bilan birgalikda ishqalanishi burchagi  $44-49^0$  ekanligi aniqlangan. Shunday qilib, protokda ildizlarning eng kam sirpanish vaqtining shartlaridan foydalanib protok o'rnatish burchagi optimal burchaklarini topamiz.

$23 \geq \dots \geq 2030$

## 2.4. Takomillashgan yassi keskichni ramaga joylashtirish sxemasi va kultivatorning umumiyl tuzilishi

Eng avvalo, fermer xo'jaliklarida yerga ishlov berishda ishlatiladigan zanjirli T-4A traktorining nechta takomillashgan yassi keskichni tortish mumkinligini xisoblab chiqamiz.

Bitta yassi keskich uchun sarflanadigan tortish kuchini ( $R$ ) aniqlaymiz.

$$R = kB = 7 \cdot 0,65 = 4,55 \text{ kH}$$

Bu yerda: k-solishtirma tortish qarshiligi, 7 kN/m;

V-qamrash kengligi,  $V=0,65 \text{ m}$

Ma'lumki, kultivator T-4A traktorining V xarakat uzatmasida ishlatiladi. Shuning uchun ushbu uzatmada traktor tortib ishlatishi mumkin bo'lgan yassi pichoqlar sonini topamiz.

$$= \quad \cdot \quad = ; ; = 7,7$$

Bu yerda  $R_{TV}$ -traktorning nominal tortish kuchi, 39 kN

$n_T$ -traktor tortish kuchning ruxsat etiladigan foydalanish ko'effentsenti, 0,9.


Yerga ishlov berishda yassi pichoqlar bir-biriga nisbatan izini yopib ishlaydi. Shuning uchun  $n=5$  ta deb qabul qilamiz va kultivator ramasiga ikkitasini oldinga va uchtasini ikkinchi qatorga shaxmat tartibida joylashtiramiz. Natijada yassi keskichlar o'rtasidan begona o'simlik ildizlari qirqilmasdan o'tmaydi va to'liq yerning betiga chiqaziladi.

Kultivator payvandlab yasalgan rama, beshta yassi keskich va ikkita tayanch g'ildirakdan tashkil topadi. U T-4A va DT-75 m traktorlariga qo'shib ishlataladi.

Kultivator konstruksiyasi jihatdan ancha oddiy. U tuproqni ag'darmasdan dalalarga ishlov berishda ishlataladi. Yassi keskichli kultivator yordamida ishlanganida shudgor sharoitida bajariladigan ko'pgina ishlarning qisqarishi hisobiga tuproq ortiqchi zichlashmaydi. Begona o'simlik ildizlari 100 foiz qirqilib yerning betiga chiqarib tashlanadi, tuproqning strukturasi-donadorlik holati yaxshi saqlanib yetarlicha maydalanadi va yana eng muhimi qo'llanilayotgan mashinanining energiya sarfi kamayadi.

## **2.5. Yassi keskich ustunining ko'ndalang kesimini aniqlash.**

Yassi keskichlar poliz ekinlari pushtasiga ishlov berayotgan vaqtda mashinaning ramasiga qattiq mahkamlanadi. (2.5-rasm) Bunda yassi kechkichning tortish qarshiligi 4,55 kN ni tashkil etadi.



2.5-rasm. Yassi kesgichni kultivator ramasiga o'rnatish sxemasi.

1-rama. 2-tig'. 3-lemex. 4-yumshatgich. 5-ustun. 6-planka.

Kundalang urishda eng kuchsiz zveno ustundir, chunki u egilishga ishlaydi(2.6- rasm).

Ustunning egilishdagi eng katta kuchlanishini topamiz.


Bu yerda:  $M_{max} = P \cdot L$ -burovchi moment:

$L=670\text{mm}$  -tig‘ uchidan yassi keskichni ramaning qotirish chizig‘iga bo‘lgan masofa.

–  $(\cdot h - \cdot h)$ - ustunning qarshilik momenti.  
Bu yerda:  $b_H=0,046\text{ m}$ ,  $b_b=0,0365\text{ m}$ -tashqi va ichki kesimlar eni;

$H_H=0,1\text{m}$ ,  $h_b=0,0848\text{ m}$ -tashqi va ichki kesimlar uzunligi.

Unda,



2.6-rasm. Ko‘ndalang kuchning ta’sir etish sxemasi.

Material St3ning egilishdagi mumkin bo‘lgan kuchlanishi 120 MPa .

Hisob-kitob shuni ko‘rsatayaptiki, mavjud ustunning egilishdagi kuchlanish mumkin bo‘lishdan kam, ya’ni

$$= 92,3 < [ ] = 120$$

Shuning uchun, ustunni shveller №10 dan uning ichki tomoniga 5 mm qalinlikdagi planka svarka qilish yo‘li bilan yasaymiz. Bunda ustunning materiali St3 dir.

### **III BOB. OPERATSION TEXNOLOGIK XARITANI HISOBBLASH QISMI**

#### **3.1. Takomillashgan ko’ltivator yordamida poliz ekinlariga ishlov berish jarayonining operatsion texnologik xaritasi**

Ishchi organi takomillashgan kultivator bilan poliz ekinlari qator orasiga ishlov berishdagi operatsiong‘texnologik xaritasini tuzishda Respublikamizdagи mavjud ilmiy tadqiqot institutlarining tavsiyalaridan foydalanildi.

##### **3.1.1. Agrotexnik talablar**

Agrotexnik talablarda, asosan qishloq xo‘jalik ishlarini sifatli o‘tkazilishini ta’minlaydi. Bunda asosiy qo‘yilgan maqsad texnologik jarayonlarni o‘z vaqtida bajarib, olinadigan hosildorlikni oshirishdir. Hamma turdagи ishlar o‘z vaqtida,qisqa agrotexnik muddatda, kuchat va tuproqning holatiga qarab o‘tkaziladi.

- poliz ekinlari qator orasiga ishlov berishda namlik 16...17% bo‘lishi kerak.
- qator orasiga ishlov berish chuqurligi 6...16% sm dan oshmasligi kerak.
- himoya zonasi 10...15 cm bo‘lishi kerak;
- yumshatilgan tuproqdagi kesaklarning o‘lchami 3-5 sm dan oshmasligi kerak;
- begona o‘tlarni kesib ketilishi to‘liq bo‘lishi kerak;
- yumshatilgan chuqurlikning berilgandan farqi 6 sm dan oshmasligi kerak;
- tuproq yuzasini notekisligi +3 sm dan oshmasligi kerak;
- poliz ekinlarini hollarini ishlov berish natijasida shikastlanishi 1% dan oshmasligi kerak.

##### **3.1.2. Agregat tarkibi**

1. Traktor.....MTZ-80
2. Qishloq xo‘jalik mashinasi..... MUB-5,4
3. Dalani o‘rtacha uzunligi.....L=750 m
4. Dalani o‘rtacha qiyaligi.....2...3°
5. Solishtirma tortish qarshiligi.....2.2 kN/m

### **3.1.3. Agregatni ishga tayyorlash va rostlash**

MUB-5,4 mashinasi erda hosil bo'ladigan qatqaloqni yumshatish, qator oralariga ishlov berish, sug'orish uchun ariq ochish, oziqlantirish, pushtaga ishlov berish va palaklarni chekanka qilish kabi ishlarda foydalaniladi. Ishlov berish mashinasi bilan ish bishlashdan oldin asosiy qismlarining to'liqliligi tekshiriladi, bolt va gaykalar qotiriladi.

Agregatni ishga tayyorlash jarayonida qoyidagi ishlar bajariladi:

1. Traktorni asosiy qismlarini sozligini tekshirish kerak;
2. MUB-5,4 kultivatorini traktorga ulanishi tekshiriladi;
3. O'g'it sepish apparatlarini sepish normasiga o'rnatiladi;
4. Harakat uzatmasi valiklaridagi yulduzchalarini to'g'ri o'rnatilganligi tekshiriladi;
5. Kultivatorning ish organlari joylashtirishdan oldin dalaga va qator orasiga ishlov berish turi va o'simlikni holati aniqlanib, kerakli ish organlari o'rnatiladi;
6. Ishchi organlar tekis maydonda shablon yordamida o'rnatiladi, ular o'tkir bo'lishi talab etiladi;
7. Ishchi organlarni yumshatish chuqurligini o'rnatish uchun tayanch g'ildirak ko'tarilib, uning ostiga 2...25 sm li g'o'lacha qo'yiladi.

Traktor kultivator bilan 50...100 m yurgandan so'ng uning barcha rostlanishlarining to'g'riliqi tekshirib chiqiladi.

Agregatni tarkibini tanlashda, traktorni qishloq xo'jalik mashinani qarshiligini yengishini ta'minlashi kerak, ya'ni quyidagi shart bajarilishi kerak

$$\begin{matrix} R & P \\ tr & m \end{matrix}$$

bu yerda  $R_{tr}$  - traktor ilgagidagi tortish kuchi, kN;

$P_m$  - mashinani tortishdagi qarshilik kuchi, kN.

Qishloq xo'jalik mashinalarining qarshiligini dinamometr yoki quyidagi formula bilan topiladi

$$R_a = k B$$

bu yerda  $k$  - mashinani solishtirma qarshiligi, kN/m.

Kultivator bilan yerga 6...16 sm chuqurlikda ishlov berganda

$$k = 1,2 \dots 4,2 \text{ kN/m.}$$

B – mashinani qamrash kengligi, m.

U holda

$$R_a \quad 2,2 \quad 5,4 \quad 12 \text{ kN}$$

Traktoring tortish kuchidan foydalanish koeffitsiyenti

$$\frac{R_{a}}{R_{tr}} = \frac{12}{14} = 0,85$$

MTZ-80 traktori uchun IV uzatmada  $R_{nr} = 14 \text{ kN}$

Agregat traktorlarning tortish kuchidan foydalanish koeffitsiyenti 0,85...0,95 bo‘lishini hisobga olinsa texnologik jarayonni bajarishda ushbu shart bajarilgan.

Agregatni burilish masofasi

$$E = 3R_{\min} \quad a$$

bu yerda  $a$  g‘ agregatning uzunligi

*atm*

bu yerda  $R_{\min}$  g‘ agregatning minimal burilib olish radiusi, m.

Kultivatorning traktor bilan birgalikda uzunligi

$$a = 5,65 \text{ m}$$

Agregatning eng kichik burilish radiusi

$$R_{\min} = 3,5 \dots 7 \text{ m}$$

$R_{\min} = 3,5$  qabul qilamiz.

U holda E teng bo‘ladi

$$E = 3 \cdot 4 + 5,5 = 17,5$$

Agregat harakatini tanlash va uni takomillashtirish yo‘ldan foydalanish koeffitsiyenti miqdori bilan baholanadi, ya’ni

$$\frac{S_p}{S_p - S_t}$$

bu yerda  $S_p$  va  $S_t$  - mashinani ish va transport hisobidagi mashinaning yo‘li uzunligi.

$$S_p \quad L_{o'rt} \quad h_p$$

$$S_p \quad L_{o'rt} \quad h_x$$

bu yerda  $h_p$  va  $h_x$  - ishchi va salt yurishlar soni.

Takomillashgan kultivator mokisimon harakat qilgani uchun

$h_p = h_x$  deb olamiz.

U holda

$$\frac{L_{i o'r}}{L_{i o'r} - L_{x o'r}}$$

bu yerda  $L_{x o'p}$  - zagonning o‘rtacha salt yurish uzunligi

$$L_{x o'r} = 6,6 R_o = 2$$

bu yerda -traktor va mashina bilan uzunligi

$$0,5_k 0,5_t m = 0,5 \cdot 6,65 = 2,8 m$$


$$R_a = 4 m$$

$$L_{o'rt} = 6,6 \cdot 4 = 22,5 = 32 m$$

Zagonning o‘rtacha ishchi uzunligi quyidagi formula bilan topiladi

$$L_{ro'or} \ L \ 2E_{\min} \ 750 \ 2 \ 32 \ 686 \ m$$

Agregatni harakatlanishi uchun mokisimon harakat tanlaymiz.



3.1- rasm. Agregatning mokisimon harakati sxemasi

### 3.1.4. Dalani ishga tayyorlash

Poliz ekinlari qator orasiga ishlov berish dalalarini ishga tayyorlashda ish sharoitini pasaytiradigan va agregatning harakatiga qarshilik qiladigan narsalarni bartaraf qilish kerak.

Buni uchun quyidagi ishlar bajariladi:

- tosh va somonlardan tozalash;
- chuqurliklarni to‘ldirib tekislash;
- yirik toshlar, yuvilib ketgan maydonlar va boshqa to‘sqliar èniga ogohlantiruvchi belgilarni o‘rnatish;
- dam olish joylarini jihozlash.

## **IV BOB. MEHNAT MUHOFAZASI**

### **4.1. Mehnat muhofazasi to‘g‘risida ma’lumot**

Hayot faoliyati xavfsizligi insonni har qanday muhitdagi faoliyatida uning xavfsizligini va sog‘ligini ta’minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi vazifalardan iborat. Hayot faoliyati xavfsizligi masalalarini ko‘rib chiqishda, kul’tivatorlardan foydalanishda mehnat muhofazasi va uning zararli ta’sirlardan atrof-muhitni himoya qilish juda muhim masaladir.

Insonlarning hayotiy faoliyatida doimiy yoki vaqtincha xavfli omillar yuzaga keladigan joy xavfli xududlar deb ataladi. Insonga, xavfli omillar bevosita u bilan belgilangan masofadan kam masofada yaqinlashilganda ta’sir etishi mumkin.

Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta’minalash asosan quyidagi tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

- a) texnikalarni xavfsizlik talablari asosida loyixalash va tayyorlash;
- b) xavfdan ximoyalanishning injener-texnik vositalardan foydalanish;
- v) xavfsiz ish jarayonlari tadbiq etish;
- g) ishchilarni xavfsizlik texnikasi bo‘yicha malakali o‘qitish;
- d) xavfsiz ish joyi va ish sharoitini takomillashtirish.

Yuqorida ta’kidlangan tadbirlar amalda kompleks holda qo‘llanilgandagina ijobiy natijalarga to‘liqroq erishiladi. Vaholanki, ushbu tadbirlarni ishlab chiqish, birinchi navbatda xavfning turini, uning kelib chiqish sabablarini o‘rganishni talab qiladi.

Xavfning turi va kelib chiqishni sabablariga bog‘liq holda xavfli faktorlardan himoyalanish usullari ikki xil: aktiv va passiv turlarga bo‘linadi.

Aktiv himoya xavfli omillarni hosil bo‘lishini yoki uning ta’sir darajasini kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Passiv himoya xavfli omillarni insonga ta’sirini bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmuidan iborat bo‘lib u ishni tashkil etish, shaxsiy ximoya vositalaridan foydalanish, xavfsizlikni ta’minlovchi texnik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar jumlasiga to'siqlar, saqlash qurilmalari, blokirovkalash moslamalari, signalizatsiya, masofadan boshqarish jixozlari, tormoz qurilmalari va boshqalar kiradi.

Nafas olish organlarini radiooaktiv moddalardan himoya qilish uchun changga qarshi matodan niqob yoki hullangan sochiq tutish lozim. Oyoq kiyimini qop-qanor tikiladigan mato bilan, kiyimlarni esa rezina to'qimali plash yordamida himoya qilinadi. Yadro portlashi, radioaktiv, zaharlovchi va bakteriyalardan odamlar guruhini himoyalash uchun maxsus yashirinish joylari va panalardan foydalaniladi. Juda zarur bo'lganda oddiy pana joylar, kavakliklar, takxonalar, ariqlar tubidan foydalanish mumkin. Bunday joylarda shaxsiy himoya vositasida bo'lish kerak.

Yong'in tarqalmasligi va uni tez uchirish uchun ishlab chiqarish binosi ichida suvli idish va qumli yashiklar quyiladi. Yong'in o'chirish inventarlari bo'limlarining maydoni va xavflilik darajasiga qarab joylashtiriladi.

Har  $500 \text{ m}^2$  ga yong'in o'chirish inventarlari bilan jixozlangan shit o'rnatiladi.

Har bir shitda:

1. 10 m uzunlikdagi shlang – 2 ta.
2. O't o'chirgich – 2 ta.
3. Bolta – 1 dona.
4. Chelak – 2 dona.
5. Lom – 1 dona.
6. Belkurak – 1 dona.
7. Uzun changak – 1 dona.

#### **4.2. Traktor bilan ishlaganda texnika xavfsizligi**

Qishloq xo'jalik mashina va quollarida ularning tuzilishi, ishlash printsipi va xavfsizlik texnikasi qoidalarini yaxshi biladigan kishilargina ishlashlari mumkin. Traktorlar va boshqa o'zi yurar quollar hamda murakkab qishloq xo'jalik mashinalarida ishlashga shu mashinalarda ishlashga guvohnomasi bo'lgan kishilarga ruxsat etiladi.

Ishlash protsessida mashina va mexanizmlarda birikkan joylar bo'shab qolishi, zazorlar kattalashishi, moy va yonilg`i sizib oqishi mumkin. Shuning uchun e'tiborsizlik bilan qilingan texnikaviy xizmat avariyyaga va boshqa shunga o'xshash ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Masalan, fiksatsiyalovchi shplintni qoymaslik oqibatida rul tortqisini rostlash probkasi buralib ketadi va natijada traktor boshqarilmaydigan bo'lib qoladi; sovitish sistemasidan suv oqishi dvigatelning qizib ketishiga, birdaniga to'xtab qolishiga, natijada avariya holatini vujudga kelishiga olib keladi; bunday dvigatelga qo'shimcha suv quyish traktorchining kuyib qolishiga olib kelishi mumkin. Traktor yurish qismining detallari va bog`lanishlarini o'z vaqtida tekshirib turmaslik oqibatida traktor ag`darilib ketishi mumkin. Agar mashinani ishlatish paytida odamlar salomatligi yoki hayotiga xavf soluvchi kamchilik sezilsa, u holda ishni darhol to'xtatish kerak.

Har bir traktorchi mashinaga o'tirishdan avval albatta uning texnikaviy holatini tekshirib ko'rishi kerak.

Harakatdagi mashinaning o'zi ham xavfli hisoblanadi. Shuning uchun ishlab turgan dvigateli yoki harakatdagi mashinani moylash va kamchiliklarini yo'qotish taqiqlanadi. Ishlash paytida mexanizatsiyalashtirilgan agregatlarga xizmat ko'rsatuvchi kishilar xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishlari kerak.

Dalada ish boshlashdan avval mexanik yoki fermer boshchiligidagi traktorni ishlatib tekshirib ko'rish, ishga yaroqli uskunalar, texnikaviy xizmat ko'rsatish uchun kerakli moslamalar, birinchi yordam aptechkalari va o't o'chirgichlar bilan ta'minlanganligi aniqlanishi kerak.

Dalada har bir traktor va qishloq xo'jaligi mashinasi uchun alohida vaqtincha to'xtatish joylari ajratilishi kerak. Mashinalarni, alohida olingan tarktorni, shuningdek, agregatni yurgizish va o'rnidan siljitimda to'la xavfsizlik ta'minlanadigan qilib joylashtirish kerak. Mashinalarni to'xtatish joylariga tartibsiz joylashtirish baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Odamlarning dam olish joylarini to'g'ri aniqlash va belgilash katta

ahamiyatga ega. Bu talabni bajarmaslik ham baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Agar g`ildirakli traktorlarda bajarilayotgan ish uchun tor oraliqning keragi bo'lmasa, u holda g`ildiraklar eng katta oraliqqa o'rnatalishi kerak.

Traktorni mashina va quollar bilan birikitish, shuningdek, ularni traktorga osishda xavfsiz usullardan foydalanish lozim. Traktor orqaga yurish yo'li bilan sekin-asta mashinaga qarab harakatlanishi kerak. Bu vaqtida traktor va mashina yoki birkitish qurilmasi oralig`ida turish mumkin emas. Traktor kerakli joyda to'xtaganidan va traktorchi ilashish muftasini uzganidan keyingina traktorni mashinaga ulashga yoki osishga ruxsat beriladi.

Traktorga yonilg`i-moylash materiallari quyish yong`in xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holda bajarilishi kerak. Traktorni kechasi ishlatganda uning yonilg`i baki smenaga etadigan miqdorda yonilg`i bilan kunduzi to'ldirib olinishi kerak. Traktorni yonilg`i bilan kechasi to'ldirish mumkin emas.

Traktor agregatini dala uchastkasiga olib chiqish oldidan traktorchi uchastka relefni bilan yaxshi tanishishi va fermer bilan birgalikda traktorning yurish marshrutvni belgilab olishi kerak. Uchastkadagi xavfli joylar (chuqurlar, toshlar) yo'qotilishi, agar buning iloji bo'lmasa, u vaqtida tayoqchalar yoki boshqa signal belgilari bilan belgilab qoyilishi kerak.

Ish boshlashdan avval kontrol egat olish va uchastka chekkalarida burilish polosalarini belgilab qoyish kerak. Bunday tayyorgarliksiz traktor aggregatining dala uchastkasida ishlashiga ruxsat etilmaydi. Traktorlar erga ishlov beruvchi mashinalar bilan birga ishlatilganda ushbu mashinalarda xizmat qiluvchi ishchilarning xavfsizligi to'la ta'minlanishi lozim.

Traktor agregatlariga xizmat ko'rsatuvchi ishchilar dorilangan urug`larni, qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatish va dori purkash oldidan maxsus kiyimbosh va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Traktorchi bilan mashinaga xizmat ko'rsatuvchi ishchi o'rtasida ikki tomonlama signalizatsiya joriy etilishi zarur. Ogohlantiruvchi signal berilib va javob signali olinganidan keyingina agregatni o'rnidan qo'zg`atish mumkin.

Yuqori tezliklarda ishlovchi mashina-traktor agregatlarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasi qoidalari oddiy traktor va qishloq xo'jalik mashinalarida amal qilinadigan qoidalardan farq qilmaydi. Lekin katta tezliklarda ishlovchi mashina-traktor agregatlarini boshqarish ancha qiyin: traktorning, ayniqsa g`ildirakli traktor va tirkama mashinalarning tebranishi va silkinishi tezlik oshishi bilan ortib ketadi. Katta tezliklarda traktor kabinasidagi havoning changlanganligi ortadi, agregatning bir tomonga surilishi va to'ntarilishi uchun sharoit vujudga keladi.

G`ildiraklarning oralig'i tor qilib o'rnatilgan traktorlar qiya joylarda ishlaganida, biron-bir to'siqdan o'tganda yoki birdaniga burilganda ag`darilib ketishi mumkin. Agregatni 5 km soatdan yuqori bo'lмаган tezlikda burish kerak. Shuning uchun yuqori tezlikda ishlovchi mashina-traktor aggregatiga ishlashga o'tgan traktorchi xavfsizlik texnikasi boyicha qo'shimcha instruktsiya olishi kerak.

Yonilg'i va moylarni faqat maxsus idishda yonilg'iga chidamli binoda yoki yer osti omborlarida saqlashga yo'l qo'yiladi.

#### **4.3. Takomillashgan kultivatorda ishlaganda rioya qilinishi lozim bo'lgan texnika xavfsizligi qoidalari:**

1. Kultivatorda ishlashga maxsus o'qigan va texnika xavfsizligiga oid qo'llanma, ko'rsatmalarini o'rgangan traktor haydovchilarga ruxsat etiladi.
2. Kultivatorni traktorga o'rnatishda va ajratib olishda ko'tarish qobiliyati 500 kg dan kam bo'lмаган yuk ko'tarish uskunalari va tagliklardan foydalanish lozim.
3. Kultivatorning gidrosilindrlari aggregat yonida begona kishilar bo'lмагандагина ishga tushirilishi mumkin.
4. Kultivator- oziqlantirgichning gidrosilindrlarini traktor kabinasidan ishga tushirishga ruxsat etiladi.
5. Tozalash, tartibga keltirish, nuqsonlarni bartaraf etish va ishchi a'zolarni joylashtirish ishlari mashina transport holatiga o'tkazilib, traktor dvigateli o'chirilib amalgalashtiriladi.

6. Ish jarayonida og‘iz va burun himoyalovchi respirator yoki ikki qavatli doka bilan o‘ralgan bo‘lishi lozim.
7. Agregat trasnport harakatlanishida, ish jarayonida unda begona kishilarning bo‘lishi, begona yuklarni olib yurish man etiladi.

## V BOB. ATROF – MUHIT MUHOFAZASI

### 5.1. Qishloq xo’jalik texnikalarining atrof-muhitga ta’siri

Tabiatni muhofaza qilish tabiiy va ijtimoiy bilimlarning o’lkan doirasini qamrab olgan bo’lib, u qator fanlar va xalq xo’jaligining xilma-xil tarmoqlari bilan uzviy bog’langan.

Tabiatni muhofaza qilish – bu tabiiy boyliklarni saqlanishi va tiklanishini ta’minlaydigan chegarada inson va uni o’rab turgan muhit o’rtasida sodir bo’ladigan munosabatni samarali bo’lishi uchun yo’naltirilgan chora-tadbirlar tizimi demakdir. Bu tizim asosida amalga oshiriladigan hamma ishlar tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga erishishga qaratilishi va bunday hattiharakatlar orqali tabiatga bevosita yoki bilvosita tarzda yetkaziladigan salbiy ta’sirlardan saqlashga yoki imkoniyati boricha ularni kamaytirishga qaratilishi zarur.

Tabiatni muhofaza qilishning 5 ta obekti mavjud:

1. Iqtisodiy obekt – tabiatdan iqtisodiy jihatdan to’g’ri foydalanish.
2. Tarbiyaviy aspekt – kishilarni tabiatga nisbatan mehr hislarini uyg’otish.
3. Sog’lomlashtirish aspekti – genetik, tabiat manzaralarini yaxshi saqlash.
4. Estetik aspekt - tabiat inson hayotidan go’zallikdir.
5. Ilmiy aspekt – tabiatni muhofaza qilishda uning qonuniyatlari asosida ish yuritish.

Atmosfera yerning himoya qatlami bo’lib, tirik organizmlarning turli ultrabinafsha nurlardan, samodan tushadigan meteoritning zarrachalaridan saqlaydi.

Agar atmosfera bo’limganda-yer yuzasi kechqurun –  $1000^0$  S sovib, kunduzi  $1000^0$  S isib ketgan bo’lardi. Faqat atmosfera tufayli yerda hayot mavjud. Atmosfera tabiatning eng muhim elementlaridan biri bo’lib, tirik organizmlarning yashashi uchun juda ham zarurdir. Chunki, organizm, xususan inson suvsiz, ovqatsiz bir necha kun yashashi mumkin, lekin u havosiz faqat 5 minut yashaydi, xolos. Demak, yerda hayotning, ayniqsa inson yashashi toza havoga bog’liq ekan. Chunki bir kishi bir sutkada 1 kg ovqat, 2 litr suv iste’mol qilsa, nafas organlari orqali 25 kg havoni yutadi. Shuning uchun havo ifloslanib uning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o’zgarishi bilan har bir organizmning fiziologik holati ham

o‘zgaradi. Toza havo – o‘simlik, hayvonlar va qishloq xo‘jalik ekinlari uchun zarurdir. Undan tashqari antibiotiklar ya’ni o‘tkazgichlar, aniq o‘lchagich asboblari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari uchun ham havo kerak. Atmosferaning ifloslanishi faqat sayyoramizdagi tirik mavjudotlarning, xususan insonning salomatligiga salbiy ta’sir etib qolmay, balki xalq xo‘jaligiga ham juda katta zarar yetkazadi. Shu sababli, bugungi kundagi eng muhim masalalardan biri atmosfera havosini toza saqlashdir Atmosfera havosi – har gal gazlarning mexanik aralashmasidan iborat bo‘lib (yer yuzasiga yaqinda), asosan azot (78,09 %) iborat. Atmosfera tarkibida yana – geliy, neon, ksenon, kripton, vodorod, azon, ammiak, yod va boshqalar bo‘lib, ular butun atmosfera tarkibining 0,1 % ni tashkil qiladi, xolos. Bundan tashqari havoda doim 3-4 % suv bug’lari, chang zarrachalari bo‘ladi.

O‘zbekistonda «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g’risida» maxsus qonun qabul qilingan. Bu qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan. Sayyoramizda dastlab hayot suv muhitida paydo bo‘lgan, rivojlangan va tirik organizmlar uchun suvning ahamiyati kattadir. Suv tugamaydigan resurslarga kiradi va aylanma harakat natijasida suv zahiralari doim tiklanib turadi. Yer yuzidagi suv tugamaydigan resurs bo‘lishiga qaramasdan inson bevosita ishlatishi mumkin bo‘lgan suv zahiralari juda ham cheklangan. Gidrosferadagi barcha suvlarning 96,5 % Dunyo okeanining sho‘r suvlariga to‘g’ri keladi. Mavjud chuchuk suvlarning katta qismi muzliklarda (1,73 %) va yer osti zahiralarida (1,70 %) joylashgan. Shuni aytish kerakki, yer ostidagi suv zahiralari aniq baholangan emas. Yer yuzida hozirgi vaqtda inson bevosita foydalanishi mumkin bo‘lgan chuchuk suvlar miqdori gidrosferadagi umumiy suv hajmining taxminan 0,3 % ni tashkil qiladi

Kishilarning kundalik hayotini suvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Suvning (suyuq, gazsimon, qattiq) bo‘lishi turli joylarning ob-havo va iqlim sharoitining shaklanishida muhim rol o‘ynaydi. Fotosintez jarayoni suv ishtirokida amalga oshadi. Suv tirik organizmlar uchun birlamchi hayot muhitini hisoblanadi. 1 tonna paxta olish uchun 10000 tonnagacha 1 tonna sun’iy kauchik

olish uchun 3000 tonnagacha, 1 tonna nikel olish uchun 4000 tonnadan ortik suv sarflanadi. Maishiy ehtiyojlar uchun ishlataladigan suvning o‘rtacha miqdori ham oshib bormoqda. Masalan : dunyo bo‘yicha shaharlarda o‘rtacha kundalik suv sarfi aholi jon boshiga 200 litrni tashkil qilsa, bu ko‘rsatkich Toshkentda 700, Moskvada 800 litrni tashkil qiladi. O‘zbekiston yerlari asosan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq va Ohangaron daryolari suvlari bilan sug’oriladi. Daryolar suv oqimini tartibga solish uchun respublikada 53 ta suv ombori qurilgan.

1998 yil 30 aprelda Ozbekiston Respublikasi Yer Kodeksi qabul qilindi. Kodeksda yer umumiy boylikdir, Ozbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi – deyilgan.

Yerlardan oqilona foydalanish tizimi tabiatni muhofaza qilish va uning resurslarini tejash haqida amalga oshirilishi hamda tuproqning toza saqlanishi,o’simlik va hayvonot dunyosiga, giologiya jinslariga va atrof-muhitning boshqa tarkibiy qismlariga ko‘rsatiladigan ta’sirni chaklashni nazarda tutishi kerak.

Demak, keng omma o’rtasida ekologik savodxonlikni keng joriy qilish va bu ishni samarali tarzda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Agar atmosfarada o’z-o’zini tabiiy tozalash jarayoni bo’lmaganda edi, yer kurrasida havo juda ifloslanib, hayot uchun xavf vujudga kelardi. Ammo tabiatning ushbu qonuniga suyanish yarashmaydi. Balki atrof-muhitni zaharlanishida yo’l qoyilayotgan kamchiliklarni tozalash va tabiatni muhofaza qilish yo’llarini izlash lozim.

Shunday ekan, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishda atrof-muhit muhofazasi uchun har bir rahbar va ishchi hodim bevosita ma’sul hisoblanadi.

Tabiiy muhitni himoya qilishni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun tabiiy muhit holatini va ifloslanish va bu sohaga oid ishlarni yuritishni davlat miqyosida ta’minandagina yaxshi samara beradi. Bunday nazoratning ilmiy asosi manitoring tarzda ish yuritish ya’ni tabiiy muhitning holatini doimiy ravishda tahlil qilish va unda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarini kuzatib borish orqali amalga oshirishi lozim.

Har qanday yonilg‘ini yoqqanda turli xil yonish chiqindilari ajralib chiqadi. Bu chiqindilar kishi salomatligiga va atrof muhitga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Zavodlar, fabrikalar va mashina-traktor parklari atrof muhitni ifoslantiruvchi asosiy manbalardir. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda joylashib, shu yerni ifoslantirsa traktorlar esa qayerda ishlasa o‘sha yerda ta’sir ko‘rsatadi.

Mavjud ishlatiladigan suvlarning 85 % qishloq xo‘jaligiga, 12 % sanoatga va 3 % maishiy-kommunal xo‘jalikka to‘-ri keladi. Suvlarning ifloslanishi ham dolzARB ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamizda suvlardan oqilona foydalanish maqsadida il-or chet el tajribalari joriy qilinmoqda. Tomchilab su-orish, suvlardan takror foydalanish oqovalarni tozalash shular jumlasidandir. Suv havzalariga tushadigan sanoat oqovalari keyingi 5 yil ichida 2 yarim marta kamaygan. Suvlarni meyordidan ortiq ifloslangani uchun jarima va to‘lovlar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish maxsus qonun asosida amalga oshiriladi. «Suv haqidagi va suvdan foydalanish» to‘g’risidagi qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Shunday qilib, kishilik jamiyatida suvning o‘rnini bosadigan boshqa hech qanaqa resurs yo‘qdir. Bu esa suvning bebaHO ekanligidan darak beradi. Kelgusida toza suv tanqisligi sezilsa, insoniyat bir qancha qo‘srimcha choralar ko‘rishga majbur bo‘ladi. Bunday choralar qatoriga muzlik suvlaridan foydalanish, dengiz va okean suvlarini chuchuklashtirib foydalanish va nihoyat yom-ir suvlaridan foydalanish kabi vazifalar kiradi.

Ko‘rib o‘tilgan ekologik muommolarni hal qilishda fermer xo‘jaliklarida agroiqlim imkoniyatlaridan to‘la foydalanib agrotexnik tadbirlar bilan birga olib borilsa ekologik muvozanatni ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Loyihalangan kultivator bilan ishlayotgan traktorni atrof-muhitga ajratib chiqarayotgan zaharli moddalarning ko‘rsatgichlari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

**Atrof muhitni buzuvchi manbalar va zaharli moddalar**

<b>№ t/b</b>	<b>Buzuvchi moddalar</b>	<b>Zaharli moddalar</b>	<b>Atrof-muhit</b>
1.	Loyihalash jarayonida qatnashayotgan texnika turlari:  Traktor MTZ-80  Kultivator MUB-5,4  Fermer xo‘jaligi sharoitida chang -to‘zonlar, shamol erroziyasi, garmsel, chang va ayerozollar	NO, CO, CH, SO <sub>2</sub> qurum, qo‘roshin, tutun, aldiged va shovqin  Chang, zarrachali tuzlar, zaharli ximikatlar, mikroelementlar	Havo va yerni buzadi.  Havo buziladi,yerni strukturasi o‘zgarishi natijasida uning unumдорлиги va hosildорлиги pasayadi.
2	Irrigatsiya va suv erroziyasi	Agrozaharli ximikatlar, azot, fosfor, suvda yeruvchi tuzlar, xlor pestitsidlar va boshqalar	Suvni, yerni va tirik organizmni zaharlaydi.
3.	Mineral o‘g’itlar, pestitsidlar, gerbitsidlar va defolantlar	Nitrat, marganets, qo‘roshin, kimyaviy moddalar	Suv ichish maydonlari, havzalari, tuproq, daryo va ko‘llar.
4.			

Zaharli moddalarni miqdorini aniqlash:

Havoni zaharovchi havoni miqdorini quyidagi formula bilan hisoblaymiz.  $M(\Delta t) = C(\Delta t) * Q(\Delta t)$

Bu yerda:  $Q$  –agregat bilan ish bajarish vaqtida ( $\Delta t = t_0 - t_1$ ) vaqtida

sarf bo‘lgan yoqilg’i miqdori, tonna;  
 S – zahrli moddalarning konsentratsiyasi;  
 $t_0$ - ishning boshlanish vaqt;  
 $t_1$  - ishning tugash vaqt;  
 $\Delta t$  - traktorning ish vaqt.

## 5.2.-jadval

### Quyidagi jadvalda ishlataladigan gazlardagi zaharli gazlar konsentratsiyasi ko‘rsatilgan

Zaxarli moddalar	Solishtirma chiqindi g/kVt soat		Hajm bo‘yicha konsentratsiyasi	
	Benzinli IYod	Dizellarda	Benzinli IYod	Dizellarda
Uglerod (II) oksidi (is gazi)	70-180	4-5,5	6 gacha	0,2 dan kam
Azot oksidlari	27	12-19	0,5	0,25
Uglevodorodlar	14-140	2-4	0,05 gacha	0,01 dan kam
Aldigedlar	3,4	0,14-,12	0,03	0,002
Oltin gurgut angdridi	0,28	0,95	0,008	0,03
Qurum	0,4	1,4-2,0	0,005	0,25
Etilen	0,02	0,0014- 0,002		

Ushbu jadvallardan foydalanib traktor va cultivator yordamida texnologik jarayonni bajarishda yoqilg’ini yonishi natijasida atrofga tarqaladigan zaharli moddalarning miqdorini hisoblaymiz. Yoqilg’i miqdori 7,1 tonnani tashkil qiladi

$$M_1 CO = C_1 CO * Q = 20 * 7,1 = 142 \text{ kg}$$

$$M_2 NO = C_2 NO * Q = 25 * 7,1 = 180 \text{ kg}$$

$$M_3 CH = C_3 CH * Q = 20 * 7,1 = 142 \text{ kg}$$

$$M_4 BP = C_3 BP * Q = 1,3 * 10^{-4} * 7,1 = 9,2 * 10^{-4} \text{ kg}$$

$$M_5 \text{ SO}_2 = C_5 \text{ SO}_2 * Q = 5 * 7,1 = 35,5 \text{ kg}$$

$$M_6 \text{ aldiged } = C_6 \text{ A } * Q = 1,2 * 7,1 = 8,5 \text{ kg}$$

Natijani qo'shamiz.

$\Sigma M_i = \Sigma C_i * Q = 142 + 180 + 142 + 9,2 * 10^{-4} + 35,5 + 8,5 = 508 \text{ kg}$  dan ortiq zaharli gazlar atrof muhitga tarqaladi.

Takomillashgan kultivatorning ish unum dorligi yuqori bo'lganligi sababli atrof-muhitga tarqaladigang zaharli moddalar miqdori kamayadi.

## VI BOB. IQTISODIY QISM

### **6.1. Ishchi organi takomillashgan MUB-5,4 kultivatorining iqtisodiy ko‘rsatkichlari aniqlash**

Iqtisodiy samaradorlik RD Uz 63.03-98 «Ispitaniya selskoxozyaystvennoy texniki. Metodi raschyota ekonomiicheskoy effektivnosti ispitivayemoy selskoxozyaystvennoy texniki» va boshqa meyoriy xujjatlar asosida hisoblandi. Iqtisodiy samaradorlik takomillashgan ishchi organi bilan jihozlangan MUB-5,4 kultivatorini mavjud haydov agregati bilan taqqoslab aniqlandi.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida manbalar va taqqoslov sinovlarida olingan ko‘rsatkichlar qabul qilindi (6.1-jadval).

6.1 jadval

Dastlabki ma'lumotlar va texnik - iqtisodiy  
ko‘rsatkichlar hisobi

№	Ko‘rsatkichlar	Bel-gila-nishi	Ko‘rsatkichlar qiymati	
			Haydov agregati uchun	takomillashgan MUB-5,4kultivatori uchun
1	2	3	4	5
A. Boshlang‘ich ma'lumotlar				
1.	Agregat tarkibi: traktor jixoz	- -	MTZ-80 PLN-4-35	MTZ-80 MUB-5,4
2.	Massasi, kg: traktor jixoz	$G_1$ $G_0$	3375 915	3375 850
3.	Chakana narx, so‘m; traktor jixoz	$S_{0t}$ $S_{0j}$	215000000 22900000	215000000 27800000

4.	Asosiy vaqtidagi unumdorligi, ga/soat	ish ish	W0	1,61	1,92
5.	Vaqtdan foydanish koeffitsiyenti: smena ekspluatatsion		$K_{s\ m}$ $K_{ek}$	0,79 0,63	0,79 0,63
6.	Yillik yuklanish, soat: a) meyoriy traktor jixoz b) xududiy traktor jixoz		$T_{m\ t}$ $T_{m\ j}$ $T_{x\ t}$ $T_{x\ j}$	1700 300 1700 300	1700 300 1700 300
7.	Xizmat tuvchi soni, kishi	ko'rsa- kishilar	$K_x$	V-razryadli traktorchi	V-razryadli traktorchi
8.	Traktorchini soatli stavkasi, /soat	1 tarif so'm	$T_b$	21298	21298
9.	YOMM sarfi, kg/ga		$U$	10,90	6,9
10	1kg kompleks yoqilg'ining narxi, so'm		$S$	4600	4600
11	Renovatsiya uchun ajratma koeffitsiyenti traktor uchun jihoz uchun		$a_t$ $a_j$	0,15 0,125	0,15 0,125

12	Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun ajratma koeffitsenti traktor uchun jihoz uchun	<i>Cht</i> <i>Chj</i>	0,045 0,20	0,045 0,20
13	Chakana narxni balans narxga o'tkazish koeffi- siyenti	<i>K</i>	1,1	1,1
B. Iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobi				
1.	Balans narxi, so'm traktor $B_1=KS_{o\ t}$ jixoz $B_j=KS_{o\ j}$	$B$ $B_0$	236500000 25190000	236500000 30580000
2.	Traktorchining ish haqi, so'm/ga $Z=T_b /W_{s\ m}$	$Z$	19016	15894
3.	1 soat vaqtdagi ish unumdorligi, ga/soat; smenadagi $W_{s\ m}=K_{s\ m} W_0$ ekspluatatsiya vaqtdagi $We_k=Kek W_0$	$W_{s\ m}$ $We_k$	1,12 1,01	1,34 1,20

4.	Yillik xududiy yuklanish,ga $W_x = We_k T_{x\ j}$	$W_x$	303	360
5.	Renovatsiya			

	uchun xarajatlar, so‘m/ga $A=(B \cdot a)/(T_z \cdot W_{ek})$ traktor jihoz	$A_t$ $A_o$	20661 10391,9	17389,5 12741,6
6.	Kapital, joriy ta’mir va rejali texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari, so‘m/ga $R=(B \cdot CH)/(T_z \cdot W_{ek})$ traktor jihoz	$R_t$ $R_o$	6198,3 16627	5216,9 16988,8
7.	Yonilg‘i moylash materiallari sarfi, so‘m/ga $G=U \cdot S$	$G$	50140	31740
8.	1ga uchun sarf langan xara- jatlar, so‘m/ga $I_{ud} = Z + A_t + A_o +$ $+ R_t + R_o + G$	$I_{udj}$	123034,2	99971
9.	Mehnat sarfi kishi-soat/ga $Z_t = L/W_{ek}$	$Z_j$	0,99	0,83

Yillik iqtisodiy samara

$$Ey = (I_{ud} \cdot m - I_{ud} \cdot ya) \quad W_{zya} = (123034,2 - 99971) \cdot 360 = 8302752 \text{ so‘m}$$

6. 1-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib o'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatdiki tavsiya etilayotgan ishchi organlarga ega bo'lgan kultivator dan foydalanilganda 1 hektar yerga sarflanadigan ekspluatatsion xarajatlar 18,7 foizga kamayadi. Buning evaziga yiliga 8302752 so'm iqtisodiy samara olinadi.

## **Xulosa**

Malakaviy bitiruv ishida bajarilgan ishlar asosida qo‘yidagicha xulosa qilish mumkin.

1.Keyingi yillarda respublikamizda polizchilik sohalari ko‘proq rivojlanТИrilmоqda.

2.Tuproqning shamol va suv eroziyasiga chidamliligini ta’minlash va poliz ekinlari keng qator oralariga ishlov berishda tuproqqa ag‘darmasdan yassi keskich bilan ishlov berish eng yaxshi usul hisoblanadi.

3. Takomillashgan yassi keskich ustun va unga maxkamlanadigan iskana, chap va o‘ng lemex va yumshatish prutoklaridan iborat. U mashina ramasiga ikkitasini oldingi va uchtasini keyingi qatorga qilib, shaxmat tartibida o‘rnataladi.

4. Yassi keskich ustunini №10 profilli shvelleming yon tomoniga 5 mm li listni payvand qilish yo‘li bilan tayyorlash ma’qul.

5. Mehnat va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha yoritilgan materiallar fuqoralarning o‘zini va atrof-muhitni muhofaza qilish va favqulotdagi vaziyatlarda muhofazalanishiga yordam beradi.

6.Takomillashgan yassi keskichli kultivator fermer xo‘jaliklarda qo‘llanilganda yillik iqtisodiy samaradorlik 8302752 so‘mni tashkil etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009.– 53 b.
3. Malyukov V.I. Mexanizatsiya baxchevodstva. – Volgograd, Nij.-Volj. Kn. izd-vo, 1982. – 6-14 s.
4. Shoumarova M, Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Toshkent. O‘qituvchi, 2002.
5. Mamatov F.M. Qishloq xo‘jalik mashinalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 340 b.
6. Karpenko A.N. i dr. Selskoxozyaystvenniye mashini. –M.:Kolos. 1989.
- 7.Klenin N.I., Yegorov V.G. Selskoxozyaystvenniye i meliorativniye mashini – Moskva: Kolos, 2005. – 464 s.
- 8.Rudakov G.M. Texnologicheskiye osnovi mexanizatsii seva xlopchatnika – Tashkent: Fan, 1974. – 284 s.
- 9.Matchanov R.D., Usmanov A.S. Agrosanoat mashinalari. Ma’lumotnama. – Toshkent, Yangi asr avlod, 2002. – 295 b.
10. Nishonaliyev U. Qishloq xo‘jalik mashinalari. -T.:O‘qituvchi. 1979.
11. Gurevich L.A. Traktor va qishloq xo‘jalik mashinalari. -T.:O‘qituvchi 1989.
12. Rudakov G.M. va boshqalar. Paxtachilik mashinalari. -T.:O‘qituvchi. 1975.
13. “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi”. T.: Adolat, 1996.
14. “Ziyonet” axborot – ta’lim tarmog‘i ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))
15. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
16. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
17. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
18. [www.e-ilm.uz](http://www.e-ilm.uz)
- 19 [www.referat.ru](http://www.referat.ru)

